

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“MAHBUB UL-QULUB” ASARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Zarnigor ABDIRAUPOVA

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil izlanuvchisi
zarnigorabdiraupova@gmail.com*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804391>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning didaktik ruhda yozilgan asari “Mahbub ul-qulub” asarining didaktik imkoniyatlari haqida gap boradi. Undagi didaktik jihatlar turli misollar orqali ochib berilgan. Asar barcha yoshdagi insonlar uchun zarur deb qaraladi va uni badiiy ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tanbeh, fasl, didaktik, pand-nasihat, zikr, qanoat, hilm.

Abstract: This article discusses the didactic possibilities of Alisher Navoi's work "Mahbub ul-qulub", written in a didactic spirit. Its didactic aspects are revealed through various examples. The work is considered necessary for people of all ages and its artistic significance is discussed.

Keywords: reprimand, season, didactic, advice, remembrance, contentment, patience.

Аннотация: В данной статье рассматривается дидактический потенциал произведения Алишера Навои «Махбуб ул-кулуб», написанного в дидактическом духе. Его дидактические аспекты раскрываются на различных примерах. Работа считается необходимой для людей всех возрастов и высоко ценится за ее художественную ценность.

Ключевые слова: упрек, время, дидактика, наставление, воспоминание, довольство, терпение.

Kirish. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiyning axloqiy falsafiy, ta’limiy didaktik qarashlarini badiiy jihatdan aks ettirgan yirik asar sifatida yuksak ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning ikkinchi qismida ma’naviy barkamollikka oid qator fazilatlar sharhlanadiki, ulardan yoshlarimiz uchun eng zarurlaridan biri qanoatdir. Qanoatga shunday ajoyib ta’rif beriladi: “Qanoat – bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shavkat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo‘lmaslik va hurmat mevasi bordir. [5] Qanoatli darvishning quruq noni ta’magir shohning xitoycha dasturxonidan yaxshiroq; faqirlik yo‘lida farog‘atlining yovg‘on umochi olg‘ir badavlatning nabotlik ovqatidan totliroqdir. Shoh uldirki, olmaydi-yu beradi, gadoy uldirki, sochmaydiyu teradi. Qanoatda tinchlik va farog‘at bo‘lganiday, aksincha, tamada razillik va uqubat bor”. Darvoqe, qanoat bilan tabiatini toblagan inson mol-davlat ilinjida olis yurtlarda sarson-sargardon kezmaydi, obro‘-e’tiborini yerga urmaydi, oilasi va xalqining sha’niga dog‘ tushirmaydi. Asarning uchinchi qismidagi ta’riflar biri-biridan qimmatbaho ma’naviy duru gavharlardir. Xususan, saxovat va himmat to‘g‘risidagi ta’rifda ko‘ngil mulkini zabit etuvchi quyidagi mushohadalar mavjud: “Himmat

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ahlining ixtisosи – saxovatdir; bu ulug‘ sifat – pokiza kishilarga xosdir. Odam – bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi... Himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas”. Ulug‘ shoир boshqa bir asarida naql qilishicha, himmat-saxovat va homiylikni kasb-koriga aylantirgan Hotamtoydan o‘zingizdek himmatli boshqa bir kishini ko‘rganmisiz,deb so‘raydilar. Hotamtoy bir kuni dasht ahliga yuz tuyu, son-sanoqsiz qo‘ylar so‘yib, ziyofat bergenini, shu orada toza havo olish uchun dashtga chiqib, o‘tinchi cholni uchratganini, uni orqalab olgan tikanlari zahmatidan ozod bo‘lib, Hotamtoy ziyofatiga kirib orom olishga da’vat etganini, chol esa rad etib, birov bergen xazinadan ko‘ra, o‘z qo‘l kuchi bilan ishlab topgan bir dirham afzalligini aytib, sen ham Hotamtoy minnatini eshitgandan ko‘ra, ushbu tikanli o‘tin zahmatini tortaqol, deya javob bergenini eslaydi va shunday xulosani bayon etadi: Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi. Mentin aning himmati afzun edi. Demak, tamasizlik, qanoat oliy himmatlikning eng yuksak bosqichi ekan. Navoiy himmat sharhi uchun tabiatdan ham shunday juda oddiy, ammo ajoyib va g‘aroyib misollar topib, badiiy talqin etadiki, uning mahoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q:

Tuxm yerga kirib, chechak bo‘ldi,

Qurt jondin kechib, ipak bo‘ldi.

Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmi,

Ipak qurticha himmating yo‘qmi? (“Mahbub ul-qulub”)

Tuxm, ya’ni lola urug‘i – yorug‘ dunyoni tark etib, yer bag‘riga kirdi, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib tomir otdi, tuproqni yorib chiqib o‘sdi, lola guli bo‘lib ochilib, olamga go‘zallik bag‘ishladi. Qurt o‘z jonidan kechib, o‘z vujudini qurban qilib, pilla o‘radi. Shu yo‘l bilan insoniyat olamini kiyintirgulik ipak hadya etdi. Arzimas bir urug‘ va jonzot g‘ayrat va himmat bilan bunyodkorlik ko‘rsatdi. Ey odamzot, sen koinotning gultojisan, sengagina ravo ko‘rilgan tafakkur va amal koinotdagi boshqa biror jonzot-u jonsiz unsurda yo‘q. Nahotki, oddiygina lola urug‘ichalik g‘ayrating, ipak qurtichalik himmating bo‘lmasa, deya nido chekmoqda Navoiy. Bunday ta’sirchan nido har qanday dangasa, insonlik g‘ayrati, g‘ururi, himmati mudragan o‘smirni ma’naviy-ruhiy uyg‘oqlikka da’vat etsa, ajab emas. Darvoqe, har bir fuqaro insonlik g‘ururi, nodir iste’dodi, g‘ayrat-shijoati bilan mehnat qilib, halol rizq-ro‘z undirsa, shuning o‘zi oliyhimmatlik, ma’naviy barkamollikdir. Navoiy asarlaridagi aql-zakovat durdonalarini o‘zlashtirish ham barkamollikka erishishning muhim omillaridandir. “Mahbub ul-qulub”dagi satrlarning ko‘pchiligi shu qadar aql-zakovat bilan yo‘g‘rilganki, ular xalq maqollari darajasida purma’no va mashhur bo‘lib ketgan. Masalan: “Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar”, “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim”, “Oz-oz o‘rganib – dono

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo 'lur,qatra-qatra yig 'ilib – daryo bo 'lur". Asardagi chin so‘z va uni aytish odobi, me’yori haqidagi mana bu misralar ham barkamollik tarbiyasida ushbu masnaviy ahamiyatlidir:

*Xiradmand chin so ‘zdin o ‘zga demas,
Vale bori chin ham degulik emas.
Kishi chinda so ‘z desa, zebodurur,
Necha muxtasar bo ‘lsa, avlodurur.*

(“Mahbub ul-qulub” 123-tanbeh 72- bet)

Alisher Navoiy ijodining aksariyat qismi barkamol avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asarlar mazmuni va g‘oyalarini o‘qib o‘zlashtirishning o‘zigma kifoya emas. Ular yoshlarimizning hayoti va faoliyatida o‘zining amaliy ifodasini topmog‘i zarur. Alisher Navoiy ilm, ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a surdi. U aql, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish-o‘rganish kerak: “*Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘il ani*”, degan shoirning o‘zi ham juda yoshligidan ta’lim oladi, o‘qishga beriladi. U yoshligidanoq ko‘p she’rlarni yod bilgan. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini bolalik chog‘laridayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o‘zining “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo‘lgan mablag‘ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya’ni hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma’rifat beradi, deydi. Asarning uch bobu ham ta’lim-tarbiya, odob-axloq to‘g‘risida. Masalan, birinchi qismning birinchi fasli “Odil salotin zikrida” bilan boshlangan bo‘lsa, “darveshlar zikrida” nomi ostida tugaydi. Yaxshi podshoh bo‘lish uchun ham, yaxshi vazir bo‘lish uchun ham, yaxshi noib bo‘lish uchun ham, eng avvalo, yaxshi ta’lim-tarbiya kerak. Bu xislatlar haqida asarda to‘liq keltirilgan. Asarning ikkinchi qismida odob-axloq, ta’lim-tarbiya masalaiga chuqurroq kiriladi va tavba nima-yu tavakkul nima, barcha-barchasiga to‘xtalib o‘tiladi. Ta’lim-tarbiya masalasi ikkinchi qismda yaqqolroq ko‘ringan.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Asarning “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (“Turli foydali o‘gitlar va masallar”) deb nomlangan uchinchi qismida shoir kichik kirish so‘zida Navoiy baxt-saodatning asosi – ma‘rifatda, eng katta baxtsizlik – ma‘rifatsizlik va jaholat ekanligini ta‘kidlab, keyingi tanbehlarda hayotiy haqiqatlar, tajriba va xulosalarini ixcham tarzda, asosan aforizm shaklida bayon etishga kirishgan. “Mahbub ul-qulub”ning ushbu qismi inson tabiatidagi bosh illatlardan biri – takabburlik va manmanlik mohiyatini olib beruvchi tanbeh bilan boshlanadi. Birinchi tanbehdha berilgan xulosaga ko‘ra, har bir insonda yuz berishi mumkin bo‘ladigan holat – o‘ziga faqat yaxshi narsalarni ravo ko‘rib, boshqalarning g‘am-tashvishi va mashaqqatlariga nisbatan beparvo bo‘lish haqida so‘z yuritilib, bu narsa insonning doimiy dushmani – nafsning xohish va istaklaridan paydo bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Nafsning istaklariga bo‘ysunish o‘ziga bino qo‘yish, o‘z so‘ziga oshiq bo‘lish hamda zohirparastlikka olib kelishiga mumkinligini keyingi tanbehdha o‘z she‘rini Sa‘diy Sheroziy va Amir Xusrav she‘ridan ustun qo‘yadigan iste‘dodsiz shoirlar, o‘zini Ja‘far va Azhar kabi mashhur xattotlar qatorida sanaydigan badxat va xat-savodsiz kotiblar, Moniy va Abdulhay kabi ulug‘ musavvirlarning ijodini ham pisand etmaydigan uquvsiz rassomlar, o‘zining donoligini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida erta-yu kech madrasada munozara bilan mashg‘ul nodon va mutaassib mutakallimlar misolida ko‘rsatiladi. Beshinchi raqam ostida kelgan tanbehdha takabburlik va o‘ziga bino qo‘yishlik illatiga mubtalo bo‘lganlarni Navoiy uch toifaga ajratadi. Birinchi guruhgaga yuqorida zikr etilganlar, ya’ni boshqalar uni inkor etsa ham, o‘jarlik bilan o‘z xatosini tuzatishga kirishmagan toifa kiradi. Ikkinci toifaga esa, o‘zining xato fikrlari va noma‘qul ishlarini boshqalarga ma‘qullatishga kirishganlar hamda o‘zidan boshqa hech kimni nazar-pisand qilmay, to‘g‘ri yo‘lga kirishni maslahat bergenlarni ham ranjitadiganlar mansub. Navoiy bunday kishilarni hayoti davomida ko‘p uchratganini, ularga qancha yaxshilik qilsa, evaziga faqat jafo va muruvvatsizlik ko‘rganini nadomat bilan qayd qilib, ko‘pchilikda uchraydigan bu illatning o‘zagini o‘ziga bino qo‘yishlik, shayton yo‘liga boshlovchi nafs amriga mute bo‘lishda deb hisoblaydi. Uchinchi toifa takabburlikda haddan oshganlardan iborat bo‘lib, Navoiy ularni yana uch guruhgaga ajratadi: 1) boshida podshoh bo‘lish xayoli tushib, bu yo‘lda nomunosib ishlar qilish va xudo tomonidan yuborilgan sultonga nisbatan isyon ko‘targanlar; 2) fosid xayollarga berilib, o‘zini payg‘ambar deb da‘vo qilgan gumrohlar va ilohiy g‘azabga duchor bo‘lganlar: “Va har xoini kozibki, bu da‘vo qila kirishti, anbiyo arvohidin anga jazo va rasvoliqlar yetishti”. 3) Alloh bergen ne‘matlarga kufr keltirib, Fir‘avn va Namrud kabi xudolik da‘vosini qilganlar. Sakkizinch tanbehdha oldingi fikrlarning

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xulosasi sifatida Navoiy quyi-dagi hikmatni keltiradi: “Takabbur Shayton ishi va biyiklik nodon ishi. Butparastliq yaxshiroqkim, xudparastliq”. Insonning yaxshiyomon qilmishlari haqida mulohaza yuritarkan, fosiqlik va zohidlik, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob –barchasi Illohiy iroda va ixtiyor tufayli sodir bo‘lishi, to‘g‘ri yo‘lga kirganlar –shukronalikni bajo keltirishlari,xato qilgan holatlarda esa, tavba qilishlari lozimligi ta’kidlanadi: “Zuhdu fisq elga taqdiri Yazdondindur, ammo ikkalasini birdek ko‘rmak nodondindur. Taqvoga shukr kerak va isyong‘a uzr”. Ayrim tanbehlar (11-18, 58, 105, 106, 108)ga sarlavha qo‘yilgan, asosiy qismi sarlavhasiz keltirilgan. Sarlavha qo‘yilgan tanbehlarda muruvvat, vafo, hayo, halimlik kabi go‘zal insoniy xislatlarning mohiyati ochib beriladi, Ayrim tanbehlarda Navoiy forsiy tilda bitilgan didaktik adabiyotning eng go‘zal namunalarini turkiy tilda jaranglatish barobarida ularning yangi ma‘no-mohiyatlar bilan boyitadi, nasihatning achchiq, ammo foydali tilidan yanada samaraliroq foydalanadi. “Mahbub ul-qulub”da ham nazm, ham nasrda teng qo‘llaniladigan badiiy san'atlar (tashbeh, tavsif, istiora, tamsil, iqtibos, saj', tazod va h.k.)dan tashqari faqat nasriy asarlarga xos bo‘lgan ma‘naviy va lafziy san'atlardan ham keng foydalanilgan. Jumladan, nazmni nasrga aylantirish san'ati –hallning go‘zal namunalarini “Mahbub ul-qulub”da ko‘p uchratish mumkin. Masalan: Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas, Vale bori chin ham deguluk emas –baytini 68-tanbehda hall san'ati vositasida quyidagicha nasrlashtirgan: “Xiradmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin deguluk ham emas”. Bu asar mutafakkir shoirning umri davomidahosilqilgan tajribalari, kuzatuv va xulosalari asosida yaratilgandir. Shu boisdan ham asardagi ko‘plab ibratli fikrlar, pandnomalari baytlar va hikmatlar xalqimiz ongidan chuqur joy olgan. Ularning ayrimlari maqol va mattallar qatorida keng qo‘llanilib kelinmoqda. “Mahbub ul-qulub” asarida o‘rin olgan aforizmlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular bu asarning asosini tashkil qiladi va bu asarning asosiy mazmun-mohiyati, asar “siri” shu aforizmlarda jamlangandir. Asarda shunday aforizmlar borki, xalqimizning eng ko‘p qo‘llaniluvchi hikmatiga aylanib ketgan. Masalan: Bayt: Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmishtir ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado, oning haqin yuz ganj ila. Barchamizga tanish bo‘lgan ushbu bayt ”Mahbub ul-qulub” asarining birinchi qism “Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati haqida” deb nomlangan, 40 fasldan iborat, turli ijtimoiy tabaqalarning niyati, faoliyati va so‘zlari haqida shoirning o‘z xulosa va kuzatuvlari bayon qilinadigan qismining 18-fasli “Dabiriston ahli zikrida” deb nomlangan faslida keltiriladi. Ushbu bayt orqali shu faslning butun mohiyatini anglash mumkin. Bu faslda ustozlar mehnatining naqadar mashaqqatli ekanligi va shogirdning qanday martabaga erishishidan qat’iy nazar o‘z ustozni oldida ta’zimda turmog‘i lozimligi ta’kidlanadi. Ikkinchi qismning to‘rtinchi bobida qanoat zikri

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

keltiriladi, unda qanoat bir chashmadurkim, suvi olingani bilan qurimaydi va bir xazinadurki, sochilgani bilan kamaymaydi, u inson ko'ngliga ravshanlik keltiradi va ko'z undan yorug'lik kasb etadi deya ta'riflanadi. Shu bobning so'ngida keltirilgan quyidagi ruboiy ham qanoatning go'zal ta'rifi bo'lib, asarda uchraydigan eng sara aforizmlardan biridir.

Ruboiy:

*Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Borcha el aro tavoze-yu izzati bor,
Ulkim ta'ma-yu hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillatu nakbati bor.*

(“Mahbub ul-qulub” 2-qism 4-bob)

Ruboiy janrida yaratilgan bu hikmatning mazmuni bob mohiyatini qisqacha yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Kimning qanoatdek xislati bo‘lsa, barcha el orasida izzat-u hurmati bor. Kimning ta’mayu hirs bilan oshnaligi bolsa, yaxshi-yomon ichida xorligu baxtsizligi bor. Ruboiy orqali qanoatning xislati yuqorida keltirilgan falsafiy qarashlardan ajratib olinganda ham o‘zing qimmatini yo‘qotmaydi. Bu ruboiydan so‘ng qanoati tufayli aziz bo‘lgan Shayx shoh Ziyoratgohiy haqidagi hikoyat keltiriladi. Asardan o‘rin olgan hikmatlarning eng saralarini keltiramiz: Ko‘p degan ko‘p yangilur va ko‘p yegan ko‘p yiqilur (502-bet). Ushbu hikmat oz so‘zlash va oz yenish bilan bog‘liq ajdodlarimiz o‘gitining badiiy ifodasiidir. Takabbur shayton ishi va biyiklik nodon ishi (504-b). Ushbu hikmat takabburlikni qoralash va kamtarlikni ulug‘lashga qaratilganligi bilan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Mutakabbir Tengri do‘srtlari olida mal’un va Tengri qoshida mardud va mal’un. Xudpisand, ishi bari elga napisand. Bilikig‘a mag‘rur, bilur elga ma'yub va Tengrig‘a maqbur” [1,504] (Ma’nosи: Takabburlik – shayton ishi va manmanlik – nodon ishi. Takabbur odam – barchaga yoqimsiz. Xudbinning hech bir ishi elga ma’qul emas. U o‘z bilimi bilan mag‘rur, ammo bilmidonlar qarshisida esa aybdor [1]. Asarda Navoiy kishi uchun or sanalmish baxillik haqida ham original fikr yuritadi: “Baxilning andoqliki, bugun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tongla qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay. Zuhd-u taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, yigitlikda dilpisandroq. Tavba va istig‘no hama vaqtda sudmanddur, qariliqda sudmandroq. Hilmu-hayo ahli har yerda arjumanddur, ulug‘lar nazarida arjumandroq. Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko‘rmadi. Saloh vafasod tuxmin kim ektikim, o‘rmadi” [1,532]. Baxil bugun topganini asrab qo‘ysa, ertaga uning qabri bugungi ro‘zg‘oridek qorong‘i bo‘ladi. Yumshoq ko‘ngilli va hayoli odam hamma joyda azizdir, ulug‘lar nazarida yanada qadrliroq. Kim yomonlik va yaramaslik qilibdiki, jazosini tortadi, kim yaxshilik va to‘g‘rilik urug‘ini ekibdiki, hosilini teradi. Navoiy baxillikning ziddini

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ehson deb biladi. Shuni alohida aytish kerakki, inson uchun yana bir ulug‘ farz – ehson qilishdirki, bu haqidagi fikrini Navoiy muqaddas hadislarga bog‘lagan holda davom ettiradi: “Hal jazo ul ehsoni illa-l ehsan”. Jumladan, hamma ta’limotlarda va barcha millat kishilari qoshida ham yaxshilikka yaxshilikdan boshqa mukofot yo‘qligi isbotlangan. Navoiy shoshqaloqlik va uning aksi bo‘lmish sabr mavzusiga ham murojaat qiladi: “Sabr bilan ko‘p bog‘liq ish ochilur, ishda oshiqg‘on kishi ko‘p toyilur, ko‘p toyilg‘on ko‘p yiqilur. Ishda oshiqmoq yosh o‘g‘lon ishidur. Sabr bila ish qilg‘uchi tajribalig‘, ulug‘ yoshlig‘ kishi ishidir” [4].

Bayt:

*Har kimsaki, aylamas oshiqmoqni xayol,
Yafrog‘ni ipak qilur, chechak bag‘rini bol.*

(“Mahbub ul-qulub” 73-tanbeh 57- bet)

Asarda sabr haqida so‘z borar ekan, yana bir o‘rinda ijodkor sabrning o‘zi achchiq bo‘lsa ham, u faqat manfaat keltiradi, u qattiq narsa, ammo zararni daf etadi deya ta’kidlaydi. Sabrni ta’riflash uchun turli tashbehlardan foydalanadi. Sabrni suhbati zerikarli bo‘lsa ham, maqsadga aniq olib boruvchi musohibga, oxiri murodga yetkazuvchi, uzoqni ko‘zlovchi ulfatga, yurishi sust bo‘lsa-da manzilga yetkazuvchi ulovga o‘xshatadi.

Xulosa. Ko‘rinib turibdiki, asarda insonning ezgu sifatlarga qanday yetishishi, va bu yo‘lda kishi qanday yomon illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi aytib o‘tilgan. Umuman olganda, buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari umuminsoniy tarbiya sohasidagi yaxlit bir asar hisoblanadi. Tarbiya haqida gap borar ekan, mutafakkirning barcha o‘gitlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. Ijodkor asarlarda har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarni tarbiyalashda, ularda umuminsoniy fazilatlarni singdirishda bizga har tomonlama namunadir. Muxtasar xulosamiz so‘ngida yana shuni ta’kidlashni istardikki, Alisher Navoiy tanbehlari nafaqat yoshlarni tarbiyalash, balki barcha yoshdagilar hatto keksalar uchun ham ibrat tazkirasi bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. 10 jildlik 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 9-jild, 2012.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
4. "Mahbub ul-qulub" asarida inson tarbiyasiga oid qarashlar.- <https://elibrary.ru/item.asp?id=47553561> eLIBRARY.RU
5. Madaniyat.UzReport.uz. 9 fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun